

METAFORIK KO'CHIMLARNING LISONIY MOHIYATI VA TILDAGI VAZIFASI

Kabuljonova Gulbaxor Komiljonovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

O'zbek va rus filologiyasi kafedrası v.b.professori, filologiya fanlari nomzodi

kabulzonovagulbahor@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada metaforik ko'chimlarning lisoniy mohiyati hamda til tizimidagi funksional vazifalari kompleks tarzda tahlil etilgan. Shuningdek, metaforik birliklarning bilish (kognitiv) jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi va nutq faoliyatidagi o'zni ilmiy asosda izohlangan. Maqolada metaforaning ikkilamchi nomlash vositasi sifatidagi ahamiyati hamda uning til boyligini oshirishdagi roli misollar orqali ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lisoniy metafora, poetik metafora, lisoniy vosita, bilish, vazifa.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the linguistic nature of metaphorical transfers and their functional roles within the language system. It also offers a scholarly explanation of the intrinsic connection between metaphorical units and cognitive processes, as well as their role in speech activity. The article demonstrates, through examples, the significance of metaphor as a means of secondary nomination and its role in enriching the language.

Keywords: linguistic metaphor, poetic metaphor, linguistic means, cognition function.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются лингвистическая сущность метафорических переносов и их функциональные роли в системе языка. Также на научной основе раскрывается неразрывная связь метафорических единиц с когнитивными процессами познания и их место в речевой деятельности. В статье на примерах показана значимость метафоры как средства вторичной номинации, а также её роль в обогащении языкового богатства.

Ключевые слова: лингвистическая метафора, поэтическая метафора, лингвистическое средство, познание, функция.

Har qanday badiiy vositalar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi. Shuning uchun ham metaforani lingvistik nuqtai nazardan o'rganish doimo o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Tilda bu hodisaning ikki asosiy turi farqlanadi, ya'ni lisoniy metafora va poetik(badiiy) metafora.

Xose Ortega-i-Gasset o'zining "Две великие метафоры" nomli maqolasida metaforani tafakkurning, ilmiy bilishning zaruriy va muhim quroli sifatida baholaydi[1.61-68]. Muallifning kuzatishicha, metaforaning ikkinchi holatdagi qo'llanilishi ko'proq abstrakt, psixik tushunchalarni ifodalash bilan bog'liq. Psixik obyektlarni nomlashgina emas, hatto tasavvur qilishning o'zi ham qiyin, chunki ularning jismoniy o'lchovi yo'q. Masalan, *odamning ko'zi* deganda ma'noni aniq tasavvur qilish mumkin. Lekin *qalb ko'zi* deyilganda obyektни tasavvur qilish qiyin. Ammo so'zni metaforik ma'noda qo'llash natijasida mavhum ma'noni tasavvur qilish imkoniga ega bo'lamiz. Mazkur jarayonda metaforaning bilishdagi muhim roli va o'zni amoyon bo'ladi. Demak, ayni paytda metaforaning nomlash, ifodalash vositasigina emas, tafakkurning ham muhim quroli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

XX asrga kelib, ayniqsa, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash butunlay o'zgardi, uning ko'lamini kengaytdi. An'anaviy tushunishda "metafora" termini ostida bir so'zning boshqasi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma'noda fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi ekanligini e'tirof etmoqdalar.

Ko'rinib turganiday, metafora ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lganligi uchun ham uning talqinlarida farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Zukko tilshunos olim

N.Mahmudov metaforiklik tilning doimiy xususiyati ekanligi haqidagi qarashlarni tahlil qilib, turli obyektlarning xususiyatlari, belgilari yoki munosabatlari o'xshashlikka asoslanishi va ana shu o'xshashlikka ko'ra bir obyekt haqidagi ma'lumot ikkinchi obyektga ko'chirishdagi kognitiv jarayon metafora hodisasining mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydi. Shuningdek, metafora inson kognitiv faoliyatining, idrok quvvatining eng qudratli qurollaridan biri sifatida aqliy va lisoniy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini e'tirof etadi[2.7-9].

Metafora borliqni bilish, tilda aks ettirish, nomlash va tasniflashning, nutqni ta'sirchan bayon etish, unga bo'yoqdorlik baxsh etishning asosiy usullaridan biridir. Metaforizatsiya esa tilda yangi ifoda vositasi qidirmay va hosil qilmay, tejamkorlik qonuniyati asosida, borliqdagi narsa va hodisalarning o'xshashligi va muvofiqligi asosida mavjud so'z va iboralarga yangi ularning ontologik imkoniyatlari asosida yangi ko'p qirrali vazifalar va mas'uliyat yuklash demakdir.

Metafora nutqning ta'sirchanligi va bunyodkorligi vazifasiga muvofiq ravishda antik dunyo ritorikada vujudga kelib, insoniyat intellektual olamining barcha sohalarini ham zabt etgan. Tilning butun qudrati metaforada mujassamlashgan. Eng kuchli tasvir vositalari ham metaforaga tayanadi [3.96-97].

Metafora shunday fenomenki, u til sohiblarining ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi, turmush tarzi, milliy va etnik mental muhiti, tabiat olami bilan aloqasining darajasi kabilar bilan belgilanadi. Demak, metafora o'zida bir nechta vazifalarni to'playdi, ya'ni birinchidan, borliqni bilish, ikkinchi tomondan, uni tilda aks ettirish va tasniflashning, uchinchi tomondan, nutqni ta'sirchan qilish, unga bo'yoqdorlik baxsh etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Metaforizatsiya tilning tejamkorlik qonuniyati asosida borliqdagi narsa va hodisalar o'xshashligi va muvofiqligi asosida mavjud ifoda vositalariga vazifa va mas'uliyat yuklash jarayonidir. Shu nuqtai nazardan yondoshganda metaforani yuzaga chiqaruvchi lisoniy omillar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shartli ravishda ularni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Metaforik ma'no nutqiy hosila bo'lsa-da, u lisoniy imkoniyat va qonuniyatlarga tayanadi. Lisoniy imkoniyatlar nutqiy hodisalar uchun sabab, mohiyat, umumiylik vazifasini o'taydi. Sababsiz natija, mohiyatsiz hodisa, umumiyliksiz xususiylik bo'lmaganidek, lisoniy asossiz nutqiy hodisa ham bo'lmaydi.

2. Leksemaning ma'noviy tuzilishidagi ayrim sememalarni tushirib, tushirilgan semalar hisobidan boshqalarini bo'rttirish imkoniyati. Buning usuli – leksemaning sintagmatik qo'shnichilik munosabatlarini buzish. So'zning ma'noviy tuzilishi deganda, so'zning ma'no qurilishida ikki tipdagi semalarning ma'lum tartibda joylashishi nazarda tutiladi:

a) Atash (denotativ, nominativ) semalari.

b) Ifoda (konnotatsiya, uslubiy bo'yoq, xoslanish) semalari.

3. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma'noda) o'xshashlik.

4. Shu o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lgan mutanosib semalar.

5. Narsalardan birining nomi nutqiy sharoit uchun yo'qligi.

Ana shu unsurlar ta'minlaganda, nomning metaforik ko'chishi yuzaga keladi.

6. Metaforada ko'chim asosini doimo ham to'la, aniq bo'lavermasligi. Masalan, *vaqt oltin* birikmasida ko'chayotgan so'z "oltin" aynan qaysi so'z o'rinda kelayapti – noaniq. Balki *qimmatli*, *hayotiy zarurat*, *ehtiyoj* va hokazo. Ammo bu noaniq.

7. O'xshatish subyektiv hosil qilinganda esa, hosil qiluvchidan boshqa shaxs uchun o'xshashlikni tiklash qiyin kechadi va hatto umuman mumkin bo'lmaydi. Masalan, *g'am-anduh botqog'i*, *o'lim yoqasi*, *hayot chirog'i* birikuvidagi ko'chimlarda metafora asosini topish mushkul. Bunday atash asosida nima yotganligini analiz va sitez qilish o'quvchini o'ylashga majbur etadi.

8. Metaforaning hosil qilinishi va uni tushunish. Metafora tilning me'yoriy qonunlarining buzilishi, "ma'nosizlik" ni keltirib chiqaruvchi omil ekan, uni bu qadar keng qo'llash zarurati qayerdan paydo bo'ladi? Bu yerda nomlash atamasi ostida bir-biridan mohiyatan farq qiluvchi 2 xil hodisa nazarda tutiladi:

1. Nomsiz narsani nomlash.

2. Nomli narsaga qayta nom berish (ikkilamchi nominatsiya).

Nomsiz narsani nomlash tilda obyektiv zaruriyat ekanligi barchaga ma'lum. Negaki nom inson bilimi faoliyatining eng zaruriy uzvidir. Ammo ikkilamchi nomlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi? Bu zaruriyat mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtai nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga keladi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

Birinchidan, nutqni qisqa va lo'nda qiladi, qiyoslang:

Saida – sinchalak // Saida – betinim, nozik, shaddod qiz.

Ikkinchidan, nutqni aniqlashtiradi:

Sobakevich – ayiq // Sobakevich – yo'g'on, basavlat odam[4.28].

Xulosa qilib aytganda, so'zning ko'chma ma'nosi ikkilamchi nominatsiya natijasi emas, so'zning ko'chma ma'noga erisha olish imkoni ikkilamchi nominatsiya asosidir. Bundan anglashiladiki, metafora uchun lisoniy asos so'zning semantik strukturasi ekan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ортега –и – Гассет Х. Две великие метафоры. //Теория метафори.-М.: Прогресс,1990.- С.68-81.

2. Маҳмудов Н.Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. –Тошкент: Академнашр, 2014. – 284 б.

3. Баҳриддинова М. Метафора ва унинг лисоний хусусиятлари. / Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари.-Андижон, 2015. -220 б.

4. Кабулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Фил. номз. дисс. -Тошкент, 2000.- 128 б.